PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

DENOV TUMANI QIZILJAR MAHALLASI SHEVASINING DIALEKTOLOGIK, LINGVISTIK VA IJTIMOIY-MADANIY TAVSIFI

Pardayeva Ruxsora Saidahmad qizi
O‘zMU Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi
ruxsorapardayeva61@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Denov tumani Qiziljar mahallasi shevasining lingvistik xususiyatlari, sheva tarkibi, fonetik, morfologik va leksik o‘ziga xosliklari dialektologik yondashuv asosida tahlil qilingan. Shuningdek, hudud aholisining etnik tarkibi, ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odatlari hamda kundalik nutqdagi o‘ziga xosliklar ilmiy jihatdan yoritiladi.

Maqolada Qiziljar shevasining o‘zbek tilining qarluq va qipchoq lahjalari bilan bog‘liq jihatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Denov tumani, Qiziljar shevasi, dialektologiya, o‘zbek shevalari, qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi, fonetika, morfologiya, leksika, dialektal birliklar, sotsiolingvistika.

Kirish. Til jamiyat hayotining eng muhim kommunikativ vositasi bo‘lib, u insonlar o‘rtasidagi fikr almashish, bilim uzatish va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ma’lumki, har bir milliy til ichida mavjud bo‘lgan hududiy ko‘rinishlar, ya’ni shevalar tilning tarixiy rivojlanishi, etnik tarkibi, geografik joylashuvi hamda ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Shevalar esa, milliy tilning ichki boyligini ko‘rsatibgina qolmay, balki xalqning madaniyati, turmush tarzi va tarixiy jarayonlarini ham o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston hududida o‘zbek tili shevalari murakkab va ko‘p qatlamli tizimga ega bo‘lib, ular asosan qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalari asosida shakllangan. Ayniqsa, janubiy viloyatlar Surxondaryo va Qashqadaryo hududlarida bu lahjalarning o‘zaro aralashuvi kuchli kuzatiladi. Bunday lingvistik aralashuv natijasida shevalarda fonetik, leksik va morfologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlar yuzaga kelgan bo‘lib, ular adabiy tildan sezilarli darajada farq qiladi.

Qiziljar mahallasi ham ana shunday lingvistik jihatdan boy va o‘ziga xos hududlardan biri hisoblanadi. Ushbu mahallada turli etnik guruhlarning birgalikda yashashi, an’anaviy turmush tarzi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar natijasida o‘ziga xos mahalliy sheva shakllangan. Mazkur sheva nafaqat fonetik va grammatik xususiyatlari bilan, balki boy leksik tarkibi va kundalik nutqdagi ifoda vositalari bilan ham ajralib turadi. Shu sababli, Qiziljar mahallasi shevasini o‘rganish nafaqat dialektologiya fani uchun, balki umumiy tilshunoslik, sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu kichik tadqiqot dialektologiya fanining zamonaviy yondashuvlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Qiziljar mahallasi shevasining lingvistik xususiyatlarini aniqlash, tizimlashtirish va ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilishdan iborat.

Metodologiya. O‘zbek dialektologiyasi tilshunoslik fanining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, turli hududiy shevalarning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tarixga nazar solsak, o‘zbek shevalarini tadqiq etishda K.Yudaxin, A.Borovkov, G‘ozi Olim Yunusov, V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Olim B. Jo‘rayev esa hududiy shevalar bo‘yicha ilmiy ishlar olib borgan. Surxondaryo hududi shevalari, xususan, Denov atrofi nutq xususiyatlari qisman o‘rganilgan bo‘lsa-da, Qiziljar mahallasi kabi mikrotoponimik darajadagi shevalar yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmagan. Mavjud tadqiqotlarda asosan umumiy janubiy o‘zbek shevalari tahlil qilingan bo‘lib, mahalla darajasidagi lingvistik farqlar kam yoritilgan. Shunga ko‘ra, Qiziljar mahallasi shevasini

o‘rganish dolzarb bo‘lib, u hududiy dialektologiya va sotsiolingvistika uchun muhim empirik material bo‘lib xizmat qiladi. Maqsadimiz, tahlil qilingan tadqiqotlar va mavjud ilmiy ishlarga asoslanib, yangi dala materiallari asosida Qiziljar shevasining o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan. Tadqiqotning obyekti sifatida Surxondaryo viloyati Denov tumani Qiziljar mahallasi aholisi nutqi tanlab olindi. Tadqiqot predmeti esa ushbu hudud shevasining fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy maqsadi Qiziljar mahallasi shevasining lingvistik xususiyatlarini o‘rganish va uning adabiy til hamda boshqa hududiy shevalardan farqli jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida dialektologiyada keng qo‘llaniladigan kuzatuv metodi, intervyu metodi, audio yozuvlarni transkripsiya qilish, qiyosiy tahlil hamda lingvistik materiallarni umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Dala tadqiqotlari davomida mahalla aholisi nutqi tabiiy sharoitda kuzatildi va yozib olindi. Yig‘ilgan materiallar fonetik, morfologik va leksik jihatdan tahlil qilinib, ilmiy xulosalar chiqarildi. Tadqiqot uchun asosiy manba sifatida mahalla aholisi og‘zaki nutqi, dala yozuvlari va audio materiallar xizmat qildi.

Asosiy qism. Hududning til tarkibi murakkab va ko‘p qatlamli til muhitiga ega hududlardan biri hisoblanadi. Bu yerda aholining asosiy qismi o‘zbek tilining qarluq va qipchoq lahjalariga xos xususiyatlar aralashgan shevada so‘zlashadi. Mazkur holat tarixiy migratsiya jarayonlari, qo‘shni etnik guruhlar bilan yaqin aloqalar hamda hududning geografik joylashuvi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, hududda tojik, turkman, qozoq va qisman boshqa millat vakillarining yashashi natijasida lingvistik integratsiya kuchli darajada rivojlangan. Bu holat kundalik nutqda so‘z almashinuvi, grammatik shakllarning aralash qo‘llanilishi hamda ko‘plab o‘zlashma so‘zlarning faol ishlatilishiga sabab bo‘lgan. Natijada, Qiziljar mahallasi shevasi adabiy tilga nisbatan ancha dinamik va o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘lgan.

Fonetik xususiyatlar. Mahalla shevasida fonetik o‘zgarishlar keng tarqalgan bo‘lib, ular nutqning tezligi va talaffuz qulayligi bilan bog‘liq holda shakllangan. Bunda fonetik dialektizmlar – adabiy tildagi so‘zlarning shevadagi o‘ziga xos talaffuziga aytiladi. Asosiy fonetik xususiyatlar quyidagilardan iborat:

Unli almashinuvi:

o → a: olma → alma

e → i: endi → indi

ovqat → avqat, avqot

Metateza (tovush o‘rnini almashishi):

yomg‘ir → yomir

supra → surpa

o‘xshaydi → o‘shxaydi

sho‘rva → sho‘rpa

x/h almashinuvi:

harakat → xarakat

hasad → xasad

Bundan tashqari, shevada cho‘ziq unlilarning mavjudligi hamda ayrim hollarda lab uyg‘unligining saqlanishi kuzatiladi. Bu holatlar shevaning fonetik tizimini adabiy tildan sezilarli darajada farqlaydi va uning o‘ziga xos talaffuz me’yorlarini shakllantiradi.

Morfologik xususiyatlar. Qiziljar mahallasi shevasining morfologik tizimi ham adabiy tildan farqli jihatlarga ega. Jumladan:

Kelishik qo‘shimchalari almashinuvi juda ko‘p uchraydi:

-ga va *-da* qo‘shimchalari o‘rnida ba’zan bir-birining o‘rnida ishlatiladi: Masalan, *poyezdda ketmoq* o‘rniga *poyezdga ketmoq, shkafda turibdi* o‘rniga *shkafga turibdi* deyiladi.

Ko‘plik shakllari:

adabiy tildagi *-lar* bilan bir qatorda qisqartirilgan *-la* shakli ham uchraydi: *bolalar – bolla, qizlar – qizla.* Masalan, *gullar bilan keldi* o‘rniga *gulla bilan keldi.*

Hurmat shakli:

ko‘plik va hurmat ma’nosida *-lar* varianti qo‘llaniladi: *onam keldilar, ular (dadam) gapiryaptilar.*

Zamon shakllari:

hozirgi zamonning dialektal shakli sifatida *-ipti* keng qo‘llaniladi: *qilipti, boripti*.

Bu xususiyatlar shevaning grammatik tizimi adabiy til bilan parallel ravishda, lekin o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlanganini ko‘rsatadi.

Leksik xususiyatlar. Qiziljar mahallasi shevasining leksik tarkibi boy bo‘lib, unda qadimiy turkiy so‘zlar bilan bir qatorda mahalliy va o‘zlashma birliklar ham mavjud. Eng ko‘p uchraydigan dialektizmlar (yoki dialektal birliklar):

satil — chelak
chapon — chopon
juvoldo‘z — igna turi
yanga — kelinoyi
yazna — pochcha
bula – xolavachcha

Shu bilan birgalikda frazeologik dialektizmlarni ham misol keltirish o‘rinli. Masalan, *sirkasi suv ko‘tarmaydigan* xalq, ya’ni *tanqidga chiday olmaydigan* odamlar, *so‘xtasi sovuq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi* kabilar; Maqollardan: *yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelibdi, yetti o‘lchab bir kes, jo‘jani kuzda sanaymiz, arpasini xom urdi, birovga bersam- essiz oshim, uyda qolsa-sasir oshim* singari maqollar mahalliy shevada ko‘p uchraydi. Bundan tashqari, kundalik hayot, qarindoshlik munosabatlari, kiyim-kechak va uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan bog‘liq ko‘plab mahalliy atamalar ham faol qo‘llaniladi. Bu holat shevaning leksik boyligini oshiradi va uning madaniy qatlamini aks ettiradi.

Ijtimoiy-madaniy xususiyatlar. Qiziljar mahallasi ko‘p millatli ijtimoiy muhitga ega bo‘lib, bu holat uning madaniy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mahallada asosiy qadriyatlar sifatida quyidagilar shakllangan: mehmondo‘stlik va ochiqlik; kattalarga hurmat, kichiklarga izzat; mahalla birdamligi va saxovatpeshalik; jamoaviy marosimlarda ishtirok etish, ko‘p bilan birga bo‘lish, ya’ni eldan ajramaslik. Hududda Navro‘z bayrami, sunnat to‘yi, aqiqa to‘yi, beshik to‘yi va nahor oshi kabi marosimlar keng nishonlanadi. Bu marosimlar nafaqat diniy yoki madaniy ahamiyatga ega, balki ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi muhim vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Kasb-hunar va iqtisodiy hayotda Qiziljar mahallasi aholisi, asosan, qishloq xo‘jaligi va unga bog‘liq sohalar bilan banddir. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari:

dehqonchilik (g‘alla, sabzavot, poliz ekinlari), chorvachilik, hunarmandchilik (tikuvchilik, gilam to‘qish), savdo-sotiq va xizmat ko‘rsatish, mehnat migratsiyasi kabilardir. So‘nggi yillarda mehnat migratsiyasi kuchayishi natijasida rus, qozoq va boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar ham mahalliy nutqda faol ishlatilmoqda. Bu esa shevaning leksik tarkibini yanada boyitib, uning zamonaviylashishiga olib kelmoqda.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari Qiziljar mahallasi shevasining lingvistik jihatdan murakkab va o‘ziga xos tizimga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tahlillar shuni anglatadiki, mazkur hudud shevasida qarluq va qipchoq lahjalariga xos xususiyatlar uyg‘unlashgan bo‘lib, bu holat tarixiy, geografik va ijtimoiy omillar bilan bevosita bog‘liqdir.

Shevaning fonetik tizimida unli va undosh tovushlarning almashinuvi, qisqarish va metateza hodisalari keng tarqalgan bo‘lib, bu uning adabiy tilga nisbatan sezilarli farqlanishini ta’minlaydi. Morfologik jihatdan esa kelishik qo‘shimchalarining almashinib qo‘llanishi, zamon shakllarining dialektal variantlari hamda hurmat ifodalovchi shakllarning mavjudligi ushbu shevaning grammatik tizimi o‘ziga xos ekanligini tasdiqlaydi.

Leksik jihatdan Qiziljar shevasi boy va rang-barang bo‘lib, unda qadimiy turkiy so‘zlar bilan bir qatorda mahalliy va o‘zlashma birliklar ham faol qo‘llaniladi. Bu esa hudud aholisi turmush tarzi, kasb-hunari va madaniy aloqalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ijtimoiy-madaniy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qiziljar mahallasida an’anaviy qadriyatlar, jamoaviylik, mehmondo‘stlik va mahalla birdamligi kabi ijtimoiy me’yorlar hanuzgacha muhim o‘rin tutadi. Bu holat til va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Umuman olganda, Qiziljar mahallasi shevasini o‘rganish nafaqat dialektologiya fani uchun, balki sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu hudud shevasini yanada chuqurroq fonetik eksperimental (tajriba metodi) va sotsiolingvistik usullar asosida o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev F. O‘zbek tili shevalari. – Toshkent: Fan, 1961.
2. Abduazizov A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004.
3. Mahmudov N. Til va jamiyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
4. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
5. Sayfullaeva, R.R., Mengliyev, B.R., Raupova, L.R., Qurbonova, M.M., Abuzalova, M.Q., Yo‘ldoshev, D.N. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent (elektron variant). 2019.
6. G‘ulomov, A.G‘., Asqarova, M.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi. 1965.
7. Ғуломов А. Асқаров М. Ҳозирги ўзбек тили. Синтаксис.: Тошкент, 1961, 263-бет.
8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-jild. – Toshkent. 2005.
9. Surxondaryo viloyati Denov tumani Qiziljar mahallasi bo‘yicha dala yozuvlari (2025-yil, ekspeditsiya materiallari).
10. https://uz.wikipedia.org/
11. www.ziyonet.uz
12. www.natlib.uz